ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA



Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi ... 28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish ... 34
Axmatova Asila Akmaljon qizi

Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning ... 37
Burkhonova Zarafruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich

The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition ... 40
Dilorom Poyonova

Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish ... 45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna

Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture ... 49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna

Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process ... 52
Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna

Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish ... 57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna

Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish ... 61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish ... 65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi

An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms ... 68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna

The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs ... 71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna

Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish ... 74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi

Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish ... 77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi

O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi ... 80
Sh. F. Mustafayeva

Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students ... 85
Turayev Alimjan Bahriddinovich

The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development ... 88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina

A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning ... 91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich

Modern Education and Training Practices for Future Dentists ... 94
Turumova Marjona Bahodirovna

Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish ... 98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari ........ 102
Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari ........ 106
Xoldarova Mubina Qudratbek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari ........ 110
Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi

Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков ........ 114
Абдуллаева Нигора Курбановна

Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры ........ 118
Мукимов Олим Эргашевич

Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework ........ 122
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich

Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта ........ 125
Хужаниязова Гузаль Юлдашевна

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish ........ 130
Abduraximova Muxabbat Allayevna

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar ........ 133
Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi

Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida ........ 138
Rustamova Ma'mura Asqar qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish ........ 141
Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna

The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language ........ 144
Tursunoy Ortiqova

Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili ........ 149
Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ........ 153
Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi

Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ........ 156
Murtazayeva Nasiba Komiljonovna

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish ........ 159
Xusnidinova Saodat

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari ........ 163
Djumayeva Dildora Isroilovna

Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students ........ 167
Inoyatova Umida Boxadir kizi

Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland ........ 171
Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi

Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish ........ 175
Akbarova Saidaxon Rustamovna

Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli ........ 180
Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish ........ 185
**Azamatova Dildora Shuxrat qizi**

Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili ........ 189
**Babayeva Dilnoz Xaydarovna**

O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS) ........ 192
**Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi**

Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili ........ 195
**Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi**

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari ........ 199
**Duvlayeva Nozigul Xolmuxammat qizi**

Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications ........ 203
**Egamova Munisa Khakim kizi**

Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish ........ 208
**Kodirov Akbar Shuxratovich**

Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools ........ 213
**Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi**

O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari ........ 218
**Mirsidikova Aziza Mirvohidovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari ........ 221
**Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oporovna**

Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education ........ 226
**Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi**

Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar ........ 229
**Omondavlatova Diyora Otabekovna**

Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish ........ 233
**Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxid qizi**

O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida ........ 237
**Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li**

Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish ........ 242
**Qurbonova G. M.**

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari ........ 245
**Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi**

Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash ........ 248
**Norqobilova Rayxona Davlatovna**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ........ 252
**Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi**

Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process ........ 254
**Shaymatova Aziza**

Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar ........ 259
**Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi**

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi ........ 265
**Suyarova Orzigul Sodiq qizi**

Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik ........ 269
**To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna**

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish ........ 273
**Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna**

Ta'limga o'qib tushunishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari ........ 276
**Umarov Bahrom Norboyevich**

Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ........ 281
**Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati ........ 286
**Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi**

Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar ........ 289
**Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi**

O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri ........ 292
**Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna**

Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish ........ 297
**Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Nurmuhammedova Dilshoda Zaynobiddin qizi**

Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения ........ 302
**Журабекова Хабиба Мадаминовна**

Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi ........ 305
**Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna**

Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков ........ 308
**Умрихина Виктория Игоревна**

21St Century Dental Innovation Technologies: An Overview ........ 314
**Khojimurodov Burkhon Ravshanovich**

Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах ........ 317
**Шарипова Шаҳноза Шавкат кизи**

Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка ........ 321
**Эшонкулов Хамрокул Маматкулович**

# O‘SMIR SHAXSIDA REFLEKSIYANI SHAKLLANISHIDA OTA-ONA MUNOSABATLARNING TA’SIRI

Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna
Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o‘smir shaxsida refleksiyani shakllanishda ota-ona munosabatlarning ta’siri masalasiga bag‘ishlanadi. Ayniqsa, ota-ona munosabatlarini o‘smir shaxsining kamoloti bilan aloqadorligi masalasi yoritilgan. Shuningdek, o‘smir shaxsida refleksiyani shakllanishiga ota-ona munosabatlarining masalasi empirik ma’lumotlar asosida tekshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, o‘smirlik, o‘zini o‘zi anglash, “Men”-konsepsiyasi, o‘zini o‘zi belgilashi, ota-ona munosabati, avtoritart, ota-onaning talabchanligi, ota-onaning yumshoq ko‘ngilliligi, avtonomlik, emotsional masofa, rad etish, hamkorlik, kelishmovchilik.

**Abstract:** The article is devoted to the issue of the influence of parental relationships on the formation of reflection in the personality of adolescents. In particular, the issue of the connection between parental relationships and the development of the adolescent’s personality is highlighted. Also, based on empirical data, the issue of parental attitudes towards the formation of reflection in the personality of adolescents was investigated.

**Key words:** personality, adolescence, self-awareness, “I” concept, self-determination, parental attitude, authoritarianism, parental demandingness, parental soft-heartedness, autonomy, emotional distance, rejection, cooperation, disagreement.

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние родительских отношений на формирование рефлексии у подростков. В частности, освещается вопрос о связи родительских отношений с развитием личности подростка. Также на основе эмпирических данных исследован вопрос родительского отношения к формированию рефлексии у личности подростка.

**Ключевые слова:** личность, подростковый возраст, самосознание, концепция “Я,” самоопределение, родительское отношение, авторитарность, требовательность родителей, мягкосердечие родителей, автономность, эмоциональная дистанция, отказ, сотрудничество, разногласия.

## KIRISH

O‘smirlarning o‘zini o‘zi idrok etish muammosi psixologiya uchun doimo muhim bo‘lib kelgan. Darhaqiqat, o‘smirlik davri shaxsning deyarli barcha jihatlarini qayta qurish uchun sezgir davrdir. Bu davrda oilaviy munosabatlar o‘smirlarda “Men-obraz”ning shakllanishi va yetuklik tuyg‘usining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning o‘zini o‘zi belgilashi uchun asos bo‘ladi. Bu yoshda ota-onalar bolalar bilan munosabatlardagi o‘zgarishlarni, o‘smirning shaxsiy makonini kengaytirishga intilishini, nasihatgo‘ylikdan hamkorlikka o‘tishni yaxshiroq anglashlari kerak. Biroq, ota-onalar ko‘pincha o‘smirlarning shaxsiy erkinligi va mustaqilligini rivojlantirish ulardan o‘zlari va farzandlari o‘rtasidagi shaxslararo masofani asta-sekin oshirishni talab qilishini tushunmaydilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘z navbatida ota-onalar o‘smirlarga hayotiy muammolarni hal qilish uchun ko‘proq mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishlariga imkon berishlari kerak [3]. Ammo, afsuski, u yoki bu sabablarga ko‘ra, ota-onalar o‘z farzandlariga o‘smirlik davrida mustaqillik, tashabbuskorlik, tanlash, qaror qabul qilish huquqini bermaydilar. Bu esa bolaning tabiiy rivojlanish jarayonining buzilishiga olib keladi.

O‘smirda mustahkamlangan o‘zini o‘zi idrok etish, “Men-obraz” u tomonidan zaiflik, kuchsizlik, atrof-muhitdagi voqelikka dosh bera olmaslik sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda destruktiv, shuningdek, nizoli tendensiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, ijobiy

“Men-obraz”ning shakllanishi esa hozirgi va kelajakdagi psixologik farovonlikni saqlashga syezilarli darajada hissa qo‘shadi. Bu esa ushbu muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda “Men-obraz” ancha yaxshi ishlab chiqilgan. “Men-obraz”ni o‘rganish V.V.Stolin, I.S.Kon, R.Berns, A.Maslou ishlarida kuzatiladi va shaxs xulq-atvori va harakatlarining o‘ziga xos o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi. E.Eriksson va G.Sallivanning ishlarida “Men-obraz”ning ijtimoiy-psixologik tabiati va unga madaniy muhitning ta’siri muhimligi ta’kidlanadi [5].

R.Berns o‘z ishlarida “Men-obraz”ning 3 ta tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatadi:

1) o‘zi haqidagi tasavvurlar taalluqli bo‘lgan kognitiv komponent;
2) emosional-qadriyatli komponent, unga umuman o‘zi haqidagi yoki o‘z shaxsi, faoliyati va boshqalarning ayrim jihatlari haqidagi kechinmalar kiritiladi;
3) “Men-obraz” va o‘zini o‘zi baholash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan aniq harakatlarni o‘z ichiga olgan xulq-atvor komponenti [10]. Tadqiqotchilar oltita turli “Men” ni aniqladilar:

1) shaxs “Men”i, real;
2) o‘smirning o‘zi tasavvuridagi “Men”, o‘ziniki;
3) boshqa odamlar nazaridagi “Men”;
4) o‘smirning “Men”i va u haqidagi boshqa odamlarning tasavvuri;
5) “Men” - o‘zi haqidagi va atrofdagilar uni qanday ko‘rishni xohlashlari haqidagi tasavvur;
6) “Men” va ota-ona [8].

Oiladagi o‘zaro munosabatlar o‘smir uchun juda muhimdir. Darhaqiqat aynan shu davrda o‘zini o‘zi anglash va yetuklik hissi rivojlanadi. Bola va ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uyg‘unlashgan bo‘lsa, “Men-haqiqiy” va “Men-ota-ona” bir-biri bilan bog‘liqlikni saqlab qolishi, lekin bir-biriga o‘xshatilmasligi kerak.

Tadqiqotchilar inqiroz davrida “Men-obraz”ning shakllanishiga alohida e’tibor qaratadilar. O‘smirlik “Men-obrazi”ning barqarorligi refleksiya, o‘ziga xoslik, qadriyat yo‘nalishlari, shuningdek, kattalik hissining shakllanishi bilan bog‘liq [4]. Psixologik adabiyotlar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘smirlik yoshi emansipatsiya, ya’ni katta avlodning himoyasi va vasiyligidan ozod bo‘lish istagi bilan bog‘liq. Taqlid qilish reaksiyasi, ya’ni o‘smirlar o‘zlariga jozibaliroq tuyulgan va o‘zlarini ular bilan tenglashtiradigan odamlarning xatti-harakatlarini o‘zlariga proyeksiya qilishga harakat qilishadi.

Alfred Adler birinchilardan bo‘lib, bola-ota-ona munosabatlari va bolalarni tarbiyalash uslublarini tahlil qilgan. U bolaning hech qanday hayotiy istiqbolga ega bo‘lmasligiga olib keladigan tarbiya uslublari bilan bog‘liq noqulay bolalik holatlarini tasvirlab berdi. A.Adlerning ta’kidlashicha, ota-onalarning erkatoyligi yoki aksincha, e’tiborsizligi bolalarda o‘zlari, atrofdagi dunyo va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlar haqida noad-ekvat tasavvurlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar tomonidan hissiy jihatdan rad etilgan va e’tiborsiz qoldirilgan bolalar o‘z kuchlarini yetarlicha baholamasliklari va hayotiy muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatishlari, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin [1].

Diana Baumrind ota-ona nazorati va hissiy qo‘llab-quvvatlash omillari bilan bog‘liq bolalik xususiyatlari guruhini aniqladi [13]. U ota-onalarning muayyan tarbiya uslublariga mos keladigan xarakter xususiyatlariga ega bo‘lgan bolalarning uchta turini ajratib ko‘rsatdi:

1) **obro‘li ota-onalar**da bolalar tashabbuskorligi, muloqotga kirishuvchanligi va o‘ziga ishonchi bilan ajralib turadi. Bunday ota-onalar farzandlaridan mazmunli xatti-harakatlarni talab qiladilar. Ularga yordam berishga harakat qiladilar va ularning ehtiyojlariga sezgirlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Avtoritar ota-onalar ko‘pincha bolalarning injiqliklariga duch kelganda mardlik va qat’iyatlilik bilan ajralib turadilar;
2) **avtoritar ota-onalar** - avtoritar ota-onalarga qarama-qarshi. Avtoritar ota-onalarning farzandlari janjalkash, ortiqcha arazchi, o‘ta ta’sirchan bo‘ladilar. Ushbu tarbiya uslubining ota-onalari bolalarga ko‘p erkinlik berish mumkin emas. Bolalarning huquqlari juda cheklangan bo‘lishi kerak, deb hisoblashadi. Bolalar hamma narsada ularning irodasi va obro‘siga bo‘ysunishga majbur. Avtoritar ota-onalar farzandlarining xulq-atvori va faoliyatini qat’iy nazorat qiladilar. Ko‘pincha o‘zboshimchaliklarni taqiqlaydilar hamda tanbeh beradilar va ko‘pincha jismoniy jazo choralarini qo‘llaydilar [6];
3) **liberal ota-onalar.** Ushbu turdagi ota-onalar bolalar tarbiyasida o‘zboshimchalik bilan yondashadilar. Kamdan-kam hollarda o‘z farzandlarining xatti-harakatlarini boshqaradi va nazorat qiladilar. Ota-onalar “shartsiz sevgi”ni ko‘rsatishga e’tibor qaratadilar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ota-onalik rolini o‘ynamaydilar. Bunday ota-onalarning farzandlari impulsiv, tajovuzkor va itoatsiz bo‘lib o‘sadi [7].

Bola va ota-ona munosabatlarini tavsiflashda ota-onalarning hissiy-shaxsiy ishtirokini hisobga olish muhim hisoblanadi. Shunday qilib, rossiyalik olim L.G.Sagovskiy ota-ona munosabatlarining oltita turini ajratib koʻrsatgan. Bu yerda ota-onalarning hissiy va shaxsiy ishtiroki mezoni muhim rol oʻynagan:

1) bolalar - ularning hayotidagi asosiy qahramon (oʻta noxolis munosabat);
2) oʻz farzandlarining ehtiyojlari va qiziqishlariga befarqlik;
3) ota-onalarning bolalarga asosiy ishchi kuchi sifatida munosabatda boʻlishi (manfaatparastlik ustanovkalari);
4) bola tarbiya ob'yekti hisoblanganda bola shaxsining xususiyatlari hisobga olinmaydi;
5) bola ota-onaning shaxsiy hayotida va uning karerasida toʻsiq sifatida namoyon boʻladi;
6) bolaga hurmat bilan munosabatda boʻlish va ma'lum majburiyatlarni yuklash [8].

L.G.Sagovskiyning tasnifini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, emosional-shaxsiy jalb etilganlik bolada "Men-obraz"ning shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, olim, ota-onalar bolaning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda oʻzaro munosabatlarning yanada sogʻlom va konstruktiv shakllariga intilishlari muhimligini ta'kidlaydi [9]. Farzand va ota-ona munosabatlarini oʻrganishga A.Ya. Varga va V.V. Stolin ota-ona munosabatlarining toʻrt turini ajratib, qimmatli hissa qoʻshdilar:

**1)** **qabul qiluvchi-avtoritar** - bolaga iliq va sezgir munosabat, uning shaxsini qabul qilishga asoslangan, ammo ijtimoiy muvaffaqiyatlar va yutuqlarga ma'lum talablar bilan birga keladi. Ushbu turdagi ota-ona munosabatidagi oʻsmirlar muvaffaqiyatlarga yuqori motivatsiya va yaxshi akademik natijalar bilan ajralib turadi. Oʻsmirlar kamdan-kam hollarda stress va xavotirni boshdan kechiradilar. Ularning oʻzini oʻzi baholashi adekvatligi va oʻzini oʻzi qabul qilishi bilan ajralib turadi;

**2)** **infantilizatsiya va ijtimoiy nogironlik elementlari bilan rad etuvchi** - bolani hissiy darajada rad etish sodir boʻladi. Aslida kamroq yetilgan deb qabul qilinadi. Shuningdek, unga salbiy xususiyatlar beriladi. Tarbiyaning bu turida oʻsmirlarda norasolik, oʻz kuchiga ishonmaslik hissi rivojlanishi mumkin. Ulgʻaygan sari, oʻsmirlar jamiyatda noqulaylik hissi ustunligi bilan atrofdagilarning fikriga bogʻliq boʻlishga moyil boʻladilar [12];

**3)** **simbiotik** - ota-ona bola hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, juda yaqin hissiy aloqa oʻrnatishni xohlaydi. Ushbu turdagi ota-onalik munosabatida oʻsmirlar mustaqil boʻlishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Oʻsmirlar koʻpincha oilada nizolarga duch kelishadi, ota-ona nazoratidan tashqarida oʻz individualligini izlashadi;

**4)** **simbiotik-avtoritar** - bolaning xulq-atvori va ruhiy holatini yetarli darajada nazorat qilmaslik, uning psixosotsial identifikatsiyaga boʻlgan ehtiyojlarini bostirish. Tarbiyaning bu turida oʻsmirlar koʻpincha tushkunlikni his qiladilar. Oʻz shaxsini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular qaram boʻlishlari, rad etish va qoralashdan qoʻrqishlari, oʻzlarini anglashda muammolarga duch kelishlari mumkin [2].

Shunday qilib, xorijiy olimlarning ishlarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, oʻsmirning adekvat "Men-obrazi"ni shakllantirishning muhim omili oʻsmirning ota-onasi bilan oʻzaro munosabatlari, shuningdek, oilada amal qilinadigan tarbiya uslubi hisoblanadi. Aynan ota-ona bilan oʻzaro ta'sir jarayonida oʻsmir oʻzini oʻzi baholashning dastlabki ahamiyatli modellarini, hissiy qoʻllab-quvvatlashni va ijtimoiy tajribani oladi. Shuningdek modellar uning ichki dunyosi va oʻzini oʻzi identifikatsiya qilishining asosini yaratadi. Bu esa oʻz navbatida oʻsmir shaxsida refleksiyani rivojlanishi oilaviy munosabatlarning ta'sir xususiyatlarini oʻrganish muhim hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, oʻsmirlik davrida refleksivlikni rivojlanishiga oilaviy munosabatlarini ta'sirini tekshirish maqsadida "Refleksivlik darajasini aniqlash" metodikasi (V.V.Ponomaryov) va I.M.Markovskayaning "Ota-ona-bolaning o`zaro munosabatlari" so`rovnomalari, oʻtkazilib, olingan natijalar tahlil qilindi.

1-jadval natijalariga koʻra, ota-onaning talabchanligi - talabchan emasligi ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,49; r≤0,01), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan (r=0,35; r≤0,01) yuqori darajada ijobiy, faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=-0,33; r≤0,01) qarama qarshi ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd etiladi. Shuning bilan birga ota-onaning talabchanligi - talabchan emasligi muloqot va boshqa shaxslar bilan oʻzaro ta'sir refleksiyasi bilan oʻzaro bogʻliq boʻlmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Ota-onaning yumshoq koʻngilliligi - qattiqqulligi ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,36; r≤0,01), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan (r=0,46; r≤0,01), muloqot va boshqa shaxslar bilan oʻzaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=0,21; r≤0,05)

yuqori darajada ijobiy va faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=-0,54; r≤0,01) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi empirik ma'lumotlar asosida aniqlandi.

1-jadval: **O'smirlik davrida refleksivlikning ustuvor strategiyalari va ota-ona munosabatlari o'rtasidagi interkorrelyatsion aloqadorlik**

| Ota-ona munosabatlarining tiplari | Faoliyatning retrospektiv refleksiyasi | Ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi | Kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi | Muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi |
|---|---|---|---|---|
| Ota-onaning talabchanligi - talabchan emasligi | -0,42** | 0,49** | 0,35** | 0,15 |
| Ota-onaning yumshoq ko'ngilliligi - qattiqqo'lligi | -0,54** | 0,36** | 0,46** | 0,21* |
| Avtonomlik-bolaga nisbatan nazoratli munosabat | -0,29** | 0,19 | 0,03 | -0,05 |
| Emotsional masofa - bolaning ota-onaga hissiy yaqinligi | -0,18 | 0,49** | 0,10 | 0,07 |
| Rad etish - ota-ona tomonidan bolani qabul qilish | 0,28** | -0,25* | -0,22* | -0,25* |
| Hamkorlik-hamkorlikning yetishmasligi | 0,24* | 0,34** | 0,44** | 0,34** |
| Kelishmovchilik - bola va ota-ona o'rtasidagi kelishuv | 0,65** | 0,61** | 0,72** | 0,60** |
| Mos kelmaslik-ota-onaning o'zaro mos kelishi | 0,24* | 0,11 | 0,22 | 0,09 |
| Ota-onaning obro'si | 0,42** | 0,27** | -0,009 | 0,34** |
| Bolaning ota-ona bilan munosabatlaridan qoniqish | 0,22* | 0,18 | 0,03 | 0,51** |

Avtonomlik-bolaga nisbatan nazoratli munosabat faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=-0,29; r≤0,01) yuqori daraja qarama-qarshi ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga avtonomlik-bolaga nisbatan nazoratli munosabat ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi, kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi, muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Emotsional masofa - bolaning ota-onaga hissiy yaqinligi ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,49; r≤0,01) yuqori darajada ijobiy ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi kuzatildi. Shuning bilan birga emotsional masofa - bolaning ota-onaga hissiy yaqinligi faoliyatning retrospektiv refleksiyasi, kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi, muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatiladi.

Rad etish - ota-ona tomonidan bolani qabul qilish faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,28; r≤0,01) yuqori darajada ijobiy, ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=-0,25; r≤0,05), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan (r=-0,22; r≤0,05), muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=-0,25; r≤0,05) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Hamkorlik-hamkorlikning yetishmasligi ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,34; r≤0,01), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan (r=0,44; r≤0,01), muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=0,34; r≤0,01) yuqori darajada faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,24; r≤0,01) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi.

Kelishmovchilik - bola va ota-ona o'rtasidagi kelishuv faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,65; r≤0,01), ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,61; r≤0,01), kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan (r=0,72; r≤0,01), muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=0,60; r≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Mos kelmaslik - ota-onaning o'zaro mos kelishi faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,24; r≤0,05) o'zaro ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatiladi. Shuning bilan birga ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi, kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi, muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

Ota-onaning obro'si faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,42; r≤0,01), ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi bilan (r=0,27; r≤0,01), muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=0,34; r≤0,01) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. Shuning bilan ota-onaning obro'si kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi. Bolaning ota-ona bilan munosabatlaridan qoniqish muloqot va boshqa shaxslar bilan o'zaro ta'sir refleksiyasi bilan (r=0,51; r≤0,01) yuqori darajada faoliyatning retrospektiv refleksiyasi bilan (r=0,22; r≤0,05) ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, bolaning ota-ona bilan munosabatlaridan qoniqish ayni vaqtdagi faoliyat refleksiyasi, kelajakdagi faoliyatni refleksiyasi bilan o'zaro bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi.

## XULOSA

Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatini beradi:

- o'smir shaxsida o'zini o'zi anglash tizimi xususiyatlarini rivojlanishida oilaviy munosabatlarning ta'siri muhim hisoblanadi;
- o'smir kamolotida ota-ona shaxsining namunasi asosiy o'ringa ega ekanligi aniqlandi;
- o'smirlik davrida refleksiyaning shakllanishi va ota-ona munosabatlari o'rtasida differensial farqlar mavjudligi kuzatildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Адлер, А. Индивидуальная психология / А. Адлер // История зарубежной психологии. – Москва: Изд-во Московского ун-та, 1986. – С.131-140.
2. Варга, А. Я. Структура и типы родительского отношения: специальность 19.00.01 "Общая психология, психология личности, история психологии": диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук / Варга Анна Яковлевна. – Москва, 1986. – 206 с.
3. Захаров, Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков / Л.И. Захаров. – Л.: Медицина, 1982. – 216 с.
4. Куповых, Ж. Г. Психологические особенности "Образа Я" подростков при различных стилях детско-родительских отношений: специальность 19.00.01 "Общая психология, психология личности, история психологии": диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук / Куповых Жанна Геннадиевна, 2014. – 214 с.
5. Кузьмишина, Е.С. Стили семейного воспитания: отечественная и зарубежная классификация /Т. Л. Кузьмишина, Е.С.Амелина, А. А. Пермякова, Е. А. Хохлова // Современная зарубежная психология. – 2014. – Т. 3, № 1. – С. 16-25.
6. Маткаримова, К. А. Стили семейного воспитания и их влияние на лич ность подростка / К. А. Маткаримова // Вестник магистратуры. – 2023. – № 4-2(139). – С. 58-59.
7. Мосько, Т. В. Стили семейного воспитания / Т. В. Мосько // Проблемы теории и практики современной науки : материалы Международной (заочной) научно-практической конференции, Нефтекамск, Республика Башкортостан, 20 ноября 2020 года. – Нефтекамск: Научно-издательский центр "Мир науки" (ИП Вострецов Александр Ильич), 2020. – С. 731-735.
8. Мухина, В.С. Возрастная психология: Феноменология развития, детство, отрочество во. М.: Академия, 2003. 456 с.
9. Павленко, В. Д. стили взаимодействия в семье и их влияние на детей / В. Д. Павленко, Я. А. Топоркова // Наука молодых – будущее России : сборник научных статей 7-й Международной научной конференции перспективных раз работок молодых ученых, Курск, 12–13 декабря 2022 года. Том 2. – Курск: Юго Западный государственный университет, 2022. – С. 219-221.
10. Петровский, А.В. Дети и тактика семейного воспитания / А.В. Петров ский. – Москва: Знание, 1981. – 96 с.
11. Поротов, П. С. Психологические особенности образа "Я" подростков при различных стилях детско-родительских отношениях / П. С. Поротов, Т. Н. Лукина // Перспективы науки. – 2020. – № 11(134). – С. 51-53.
12. Семья в психологической консультации / В.В. Столин [и др.]; под. ред. В.В. Столина. – Москва: Педагогика, 1989. – 208 с.
13. Zikov, S. N. the influence of the style of family education on the develop ment of the personality of a preschool child / S. N. Zikov // Теория права и межгосударственных отношений. – 2022. – Vol. 1, No. 4(24). – P. 258-263. – EDN JBILVP.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1**


© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.